

“KELINOY YOKI NORGULOY” DOSTONI TARKIBIDAGI TOPONIMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Abatov Doston Ro‘zimurod o‘g‘li,
Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat
markazi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: dostonabatov1997@gmail.com
ORCID: 0009-0004-2553-6984

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18230966>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qodir baxshi Rahimov ijrosidagi “Kelino yoki Norguloy” xalq dostonida qo‘llangan topomorf kodli (Tangiharam, Samarqand, Darband, Hisor, Pachkamar); rang bildiruvchi kodli (Oqbosh tov, Oqbet tov, Oqtov, Qizil qiya, Qizil qoya); atributiv kodli (Laylimkon, Konsoy); etnomorf kodli (G‘uzor); antropomorf kodli (Malik cho‘li) toponimlar lingvokulturologik aspektida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: toponim, onomastika, lingvomadaniy kod, topomorf kod, antropomorf kod, atributiv kod, rang anglatuvchi kod, somatik kod, biomorf kod, xalq dostoni.

Annotation. This article analyzes, from a linguocultural perspective, the toponyms used in the folk epic “Kelino y or Norguloy” as performed by Qodir baxshi Rahimov. The study examines toponyms encoded with **topomorphic codes** (Tangiharam, Samarqand, Darband, Hisor, Pachkamar); **color-based codes** (Oqbosh tov, Oqbet tov, Oqtov, Qizil qiya, Qizil qoya); **attributive codes** (Laylimkon, Konsoy); **ethnomorphic codes** (G‘uzor); and **anthropomorphic codes** (Malik cho‘li), revealing their linguocultural characteristics.

Keywords: toponym, onomastics, linguocultural code, topomorphic code, anthropomorphic code, attributive code, color-denoting code, somatic code, biomorphic code, folk epic.

Аннотация. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются топонимы, использованные в народном эпосе «Келиной или Норгулóй» в исполнении Кадыра бахши Рахимова. В работе рассматриваются топонимы с **топоморфным кодом** (Tangiharam, Samarqand, Darband, Hisor, Pachkamar); **цветообозначающим кодом** (Oqbosh tov, Oqbet tov, Oqtov, Qizil qiya, Qizil qoya); **атрибутивным кодом** (Laylimkon, Konsoy); **этноморфным кодом** (G‘uzor); а также **антропоморфным кодом** (Malik cho‘li), раскрывающие их лингвокультурные особенности.

Ключевые слова: топоним, ономастика, лингвокультурный код, топоморфный код, антропоморфный код, атрибутивный код, цветообозначающий код, соматический код, биоморфный код, народный эпос.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida xalqning tarixiy xotirasi, mifologik va diniy qarashlari, urf-odatleri hamda qadriyatleri, bir so‘z bilan aytganda, madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassamlashtiruvchi onomastik birliklar, xususan, toponimlarni lingvomadaniy aspektida tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Onimlar – tilning avlodlar tajribasiga doir bilimlarni to‘plash, jamlashdan iborat kumulyativ vazifani voqelantiruvchi unsur” [1, 3] sifatida o‘zi mansub bo‘lgan xalqning tarixi, turmush tarzi, siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy hayoti haqida aniq va to‘g‘ri xulosalar chiqarishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida toponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari tadqiqi ma'lum darajada amalga oshirilgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni misolida toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Bu esa o'z navbatida mavzuning muhim va dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugunga qadar toponimlarda lingvomadaniy kodning ifodasiga doir tadqiqotlarda onomastikaning lingvistika, tarix va geografiyaning o'zaro uyg'unlashuvidan shakllangan soha ekani ta'kidlanadi [1, 7]. Garchi E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, V.Shmilauer, B.A.Serebrennikov, Y.M.Endzelin, A.P.Dulzon, Y.Pospelov, V.A.Juchkevich, G.A.Kapanatsyan, A.A.Abdurahmonov, G.K.Konkashpayev, H.Hasanov, S.Qarayev, T.Nafasov, K.K.Matveyev kabi olimlar toponimikani tilshunoslikning mustaqil sohasi deb bilsalar-da, toponimik tadqiqotlar uchun dastlab lingvist emas, sof toponimist bo'lish shart degan talablar XX asrning ikkinchi davr ilmiy adabiyotlarida tez-tez ko'zga tashlanadi [1, 7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lingvokulturologik va onomastik yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqot materiali sifatida Qodir baxshi Rahimov ijrosidagi "Kelinoy yoki Norguloy" xalq dostonining matni tanlandi. Tadqiqot jarayonida doston tarkibidagi toponimlar aniqlanib, ularning semantik tuzilishi va madaniy kodlari (topomorf, rang bildiruvchi, atributiv, etnomorf, antropomorf va boshqalar) tasniflandi.

Tahlil va natijalar. Toponimlar joy nomlari hisoblanib, ularni to'plash, tizimlashtirish, shuningdek, lingvomadaniy aspektida tadqiq qilish masalasi hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Professor T.Nafasov ta'biri bilan aytganda "Har bir nomning o'z tarixi bor. Nom zamiridagi tarixni ochish uchun nom yaralgan davrga sayohat qilish zarur. Nom uchun asos bo'lgan ijtimoiy, madaniy, psixologik, lisoniy omilni topish lozim. O'shandagina nomning mag'zi, ma'nosi, tarixi to'g'ri aniqlanadi. Nomning asosini tilning hozirgi holatidan, zamonaviy ijtimoiy voqelikdan qidirmaslik kerak. Nomning bosh fazilati – tarixiylik, qadimiylilik. Nomda davr madaniyati, zamon ma'naviyati va mafkurasi, nom qo'yuvchilarning dunyoqarashi aks etadi. Shu bois joy nomlari tarixiy yodgorlik maqomida bo'ladi. Nom – tarix, madaniyat va til yodgorligi. Nom – nomus, nom – or, nom – vijdon, nom – sha'n, nom – ko'zgu, nom – tafakkur, nom – shuur, nom – ma'naviyat, nom – o'tmish, nom – davr, nom – ma'naviyat, nom – xalq, nom – Vatan. Bu mantiqlarning har biri o'z asosiga, ta'rif-u tavsifiga ega" [2, 6].

1-jadval

Fanda toponimlar tavsifi quyidagicha:

№	Toponim turlari	Toponimlar izohi
1	Geonimlar	Yer sayyorasidagi barcha geografik obyektlarning atoqli otlari
2	Kosmonimlar	Yer sayyorasidan tashqaridagi barcha kosmografik obyektlarning atoqli otlari

Geografik toponimlar tasnifi quyidagicha:

№	Geografik toponim tipi	Toponimlar izohi
1	Xoronom	Hudud va davlatlarning atoqli nomi
2	Dromonim	Yer, suv va atmosferadagi yo'l va boshqa transport yo'nalishlarining atoqli nomi
3	Agronom	Dala va adirlarning atoqli nomi
4	Drimonim	O'rmon va to'qaylarning atoqli nomi
5	Ekonom	Aholi istiqomat qiladigan hududlar, ya'ni uylar, qishloqlar, katta-kichik shaharlar singari makonlarning atoqli nomlari
6	Komonim	Qishloqlarning atoqli nomi
7	Astionim	Katta-kichik shaharlarning atoqli nomi
8	Gidronim	Suvli makonlarning atoqli oti
9	Geleonim	Botqoqlik kabi o'ta namli yerlarning atoqli nomi
10	Limnonim	Ko'l va hovuzlarning atoqli nomi
11	Okeonom	Okeanlarning atoqli nomi
12	Pelegonim	Dengizlarning atoqli nomi
13	Potamonim	Irmoq va daryolarning atoqli nomi
14	Insulonim	Orollarning atoqli oti
15	Oronom	Cho'qqilar, tog'lar hamda vodiylar singari relyefli hududlarning umumiy atoqli nomi
16	Speleonim	G'or va boshqa shu kabi yerosti obyektlarining atoqli nomi
17	Urbonim	Shahar ichi obyektlarining umumiy atoqli nomi
18	Godonom	Ko'chalarning atoqli nomi
19	Agoronim	Maydon va bozorjoylarning atoqli nomi

Onomastik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda toponimlarda 15 ga yaqin madaniy kodlar mavjud ekanligi qayd etilgan. Buni quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qilamiz.

	Madaniy kodlarni tadqiq etgan olimlar	Madaniy kodlarning talqini
1	V.V. Krasnix	1) somatik; 2) fazoviy; 3) vaqtga doir; 4) predmetli; 5) biomorf; 6) ma'naviy [1, 54].
2	V.A. Maslova, M.V.Pimenova	1) stixiyaviy; 2) buyumli; 3) ozuqaviy; 4) predmetli; 5) vegetativ; 6) vital; 7) somatik; 8) perseptiv; 9) antropomorf; 10) kolorativ; 11) fazoviy; 12) temporal; 13) ma'naviy [1, 54].
3.	A.M. Mezenko	Urbonim (shahar ichidagi toponimlar)ga doir: 1) topomorf; 2) antropomorf; 3) fizikaviy-geografik; 4) floristik; 5) faunaviy; 6) hissiy-xarakterli; 7) rang anglatuvchi; 8) temporal [1, 54].
4	Y.I. Syanova	Hudud mikrotoponimlariga doir: 1) geografik (tabiiy-landshaft); 2) zoomorf; 3) fitomorf; 4) lokativ; 5) antropomorf; 6) rang anglatuvchi; 7) temporal; 8) tarixiy-ijtimoiy va etnomorf; 9) kvantorli [1, 54].
5	T.Y. Vasilyeva	Oykonimlarga doir: 1) antropomorf; 2) landshaftli; 3) vaqtga doir; 4) fazoviy; 5) o'simlikni anglatuvchi; 6) ma'naviy [1, 54].
6	I.A. Korolyova	Toponimlarga doir: 1) antropomorf; 2) landshaftli; 3) fazoviy; 4) vaqtga doir; 5) topomorf; 6) o'simlikni anglatuvchi; 7) atributiv; 8)

		ma'naviy [1, 54].
7	R. Bart	Ijtimoiy-tarixiy (vaqt, mamlakat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar), ilmiy (fan yutuqlari haqidagi bilimlar), xronologik (matnda muddatning berilishi), topografik (matnda ko'lamni belgilash), onomastik (atoqli otlarning kodi), ritorik (matnni shakllantirishning ijtimoiy me'yorlari), aksional (matnda harakatlarning berilish tartibi), narrativ (bayon qilish tartibi), fatik (muloqot shakllari), germeneytik yoki enigmatsion (matnga doir savol, topishmoq yechimining qo'yilishi), metalingvistik (matn to'g'risidagi matn)

Tadqiqot natijalari. “Rang ifodalovchilarni lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida, ya'ni xalq madaniyati, menteliteti, uning milliy ruhi bilan aloqadorligini o'rganish millat madaniyati haqida ham ma'lum bir xulosalarga kelishga zamin yaratadi, chunki ranglarda xalqning qarashlari, urf-odatlar, ishonchlari ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadi” [3, 94]. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida ham rang anglatuvchi kod bilan bog'liq toponimlar uchraydi.

1. *O'tgan zamonda, Oqboosh tovdan tubanda, Oqbet tovnig ustida Gala degan joy bo'lib, u yerda Shukuraliboy degan katta boy yashar edi* [4, 6].

2. *Ko'ring endi Omondi, // Qo'rqitadi tumandi, // Zarbi yerga ag'darar, // Oqtovdagi qabondi* [4, 18].

3. *Quzg'un qushlar ximcha, // Do'stlik qilmaydi eliga. // Yetti tong vaqti bek So'ltoq, // Oqdovonlarning beliga* [4, 71].

4. *Bir tomoni Qizil qiya, // Oldi havor yo'l keldi. // Bir tomonda Oqtov tov, // Oldidan goh zov keldi* [4, 14].

5. *So'ltoqni Qizil qoyaning ostida ko'rib, quv deb buyurdi* [4, 17].

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, toponimlarni nomlashning dastlabki tamoyillari nomlanuvchi obyektning tashqi ko'rinishi, xususan, rang bilan bog'liq bo'lgan. Lingvokulturologik tadqiqotlarda *oq* rang tabiat va tiriklikning boshlang'ich shakli, asosi sifatida talqin qilingan. Mazkur rang “*sut, urug', suv, samoviy poklik*” [5], “*ezgulik va baxt*” [6], “*sharofatlilik ifodasi*” [7], “*ko'zga ko'rinadigan moddiy borlik, tiriklik olami*” [8] ramzi, “*Xudo nazari tushgan deb qaraladigan urug', qabila boshliqlari kiyimi*” [9] chodirlari, kelinlik liboslari rangi sifatida ongimizda saqlanadi.

“Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida topomorf kodli toponimlar ham qo'llangan bo'lib, ulardan ba'zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Ma'lumki, bunday kod “o'zga geografik yoki tabiiy obyektning nomidan hosil bo'lgan onomastik birlik kodi” [1, 54].

1. *Otasini bilsang Pachkamar boyi, // Tentaklar bo'ladi pulning gadoyi, // Qizini Norgul der falakning oyi, // Chanqavuzni tovus chaldi, oy chaldi* [4, 8]. Mazkur parchada Pachkamar toponimi qo'llangan bo'lib, ushbu toponimga T.Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi”da quyidagicha ta'rif berilgan:

Pachkamar – azalda kamar nomi bo'lgan. Kamar – tog' yonbag'ri va quyisidagi adirliklarda, soy-u qirlar orasida tevaragi balandlik (qir) bilan o'ralgan, o'rta qismi

pastqam bir tomoni soyga yoki tekis joyga tutashgan berk joy. Pach – panj (f-t) so‘zining o‘zgargan shakli. Panj – besh, ko‘p, bir necha. Kamarlar uzun soylarning yonbag‘rida bo‘ladi. Pachkamar – yonma-yon joylashgan bir necha (besh) kamarlar bo‘lgan joy (soylik, adir, maydon). Ana shunday joy quyisidagi qishloq nomiga aylangan [2, 135].

2. *Tangiharamning boylari, // Echki aralash qo‘ylari, // Kiyim kiysa, yarashar, // Norguloyning bo‘ylari.* Dostonda uchragan Tangiharam toponimining izohi T.Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi”da quyidagicha:

Tangiharam – Tarkibi: tangi+haram. Tog‘li tumanlar aholisi nutqida tangi – ikki tomoni tog‘ning tik tizmasi singari baland qirdan iborat bo‘lib, o‘rtasi soylikdan iborat bo‘lgan daraning tor, siqiq joyi. Haram – muqaddas joy, ziyoratgoh; xona; ichki hovli, podshoh saroyi, boylar qasri. Daraning tor joyidagi ziyoratgoh (qadamjo) yonida bunyod bo‘lgan qishloq – Tangiharam [2, 154].

3. *Mening otam nihoyatda do‘mbiraga qiziqqan, Hisor viloyatiga borib, bir do‘sti bilan mardikor ishlab qaytarida bozordan do‘mbira ham sotib olgan [4, 41].* Toponimik lug‘atlarda Hisor toponimi quyidagicha izohlangan:

Hisor – qishloq. Shaharsozlik, qishloqsozlik, uysozlik madaniyati bilan bog‘liq tarzda 9 – 10-asrlarda arab tilidan hisor so‘zi o‘zbek, tojik, fors tillariga o‘tgan. Dastlabki ma‘nolari: o‘rab olmoq; o‘rab olingan, devor bilan qurshalgan; atrofi o‘ralgan joy, devorli qo‘rg‘on, qo‘rg‘on, qal‘a [2, 263].

4. *Bilak uzuging oltindan, // Samarqand bilan Buxorday, // Yaltillab turar ko‘zlari, // Sakson ikki ming shaharday [4, 49].* Samarqand toponimining izohi T.Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi”da quyidagicha:

Samarqand – nomning tarkibi – samar+ kent. Kent so‘zi o‘zgarib kand shakliga o‘tgan. Kent so‘zining ma‘nosi – qo‘rg‘on, qasr; shahar. Samar so‘zining talqini turlicha. 11-asrning buyuk tilshunosi M.Koshg‘ariy semiz+kand, ya‘ni katta shahar deb izohlagan. Abu Rayhon Beruniy Samizkand – ma‘rifat shahri tarzida sharhlagan. Bobur ham semizkend deb yozgan. Prof. B.O‘rinboyev ariq yonidagi shahar tarzida tavsiflagan. Prof. T.Enazarov daryo bo‘yidagi shahar Samarqand nomining qadimiy talqini deb tahlil qilgan. Samar so‘zining ma‘nosi qat‘iy tarzda aniqlanmagan [2, 140].

5. *Boy odamlari bilan Hisor viloyatini qarab, oradan 25 kun o‘tib, Boysunga kelib choyxonadan choy ichib turib edi, shohsupada o‘tirgan boylar qo‘shilib gurung qila berdi [4, 73].*

Boysun atamasi qadimgi turkiycha “boy” va “sin”dan olinib, “ulug‘ tog‘” yoxud “katta tog‘” ma‘nosini anglatgan. Qadimgi turkiy qavmlarda boshqa narsalarga sig‘inishlar qatorida tog‘ga sig‘inish ham mavjud bo‘lib, tog‘lar muqaddas sanalgan. Mahalliy rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning badavlat kishilari yashagan bo‘lib, “Biysun” atamasi “boylar qishlog‘i” ma‘nosini anglatgan.

6. *Ikkovi Saramasga borib yashirib turdi, kunning tuba-tubaga chiqayotgan vaqtda Oqdovondan yetti otli ot chopib o'tdi. Darbandga qarab tashlab ketdi* [4, 72].

DARBAND [f.] – Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi qishloq. T.Nafasov lugʻatida qishloq nomi mahalliy aholi nutqida Derbent shaklida qoʻllanishi keltiriladi. Olim Darband toponim va geografik termin boʻlib, tarkibida dara soʻzi borligini qayd etadi va shu asosda qishloq nomi Darbandni daraning qisqich joyi maʼnosini ifodalashini taʼkidlaydi [2, 57-58].

“Kelinoy yoki Norguloy” dostonida *Laylimkon, Konsoy* kabi atributiv kodli toponimlar ham uchraydi. Maʼlumki, “atributiv kod inson yoxud predmetning belgilari, xususiyatlari, sifatleri toʻgʻrisidagi tasavvurlarini mujassamlashtiradi. Odatda, bu kodni jamlagan toponimlarda hududga doir biror belgi, xil-xususiyat oydinlashtirilgan boʻladi” [1,55].

Bedov otni saylab-saylab minsanglar, // Qoʻlga tayoq bilan multiq olsanglar, // Oxir kelar shu Konsoyning yoʻlidan, // Ikki yoʻl bor silar anglab bilsanglar [4, 77].

Konsoy – Tarkibi: kon+soy. Kon (f-t) – tuz hosil boʻlgan va mavjud boʻlgan joy va tuz qatlami. Soy – ikki tomoni tizma, qir kabi balandliklar bilan oʻralgan choʻziq joyning oʻrtasi, vodiy. Konsoy – tuz qatlami boʻlgan soylik yonidagi qishloq [2, 96].

“Kelinoy yoki Norguloy” dostonida antropomorf kodli *Malik choʻli* hamda etnomorf kodli *Gʻuzor* toponimlari ham uchraydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, toponimlarda xalq tarixi, turmush tarzi, urf-odatleri, anʼana va qadriyatleri, umuman olganda, madaniyati haqidagi maʼlumotlar jamlangan boʻlib, toponimlarni lingvokulturologik jihatdan oʻrganish orqali xalq oʻtmishi hamda tili haqida aniq va toʻgʻri xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega boʻlish mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Turdiqulov Sh.D. Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi. Monografiya. – Moldova, 2023. – B. 3.
2. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.
3. Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.
4. Қодир баҳши Раҳимов. Келиной ёки Норгулой. – Қарши давлат университети нашриёти, 2011. – 101 б.
5. Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск, 1984. – Б. 60.
6. Горбачевич К., Хабло Е. Словарь эпитетов русского литературного языка. – Л., Наука, 1979. – С. 52.
7. Сапарбоев Н. Метафоры в эпосе «Манас»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1975. – С. 86.
8. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорликлар // Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 171.
9. Joʻrayev M., Roʻziyeva M. Mif va rang simbolikasi // Til va adabiyot taʼlimi, 2017. – № 1. – B. 43
10. Abatov D. Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lugʻati. – Qarshi: Intellect, 2023. – 48 b.